

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI**

**"HOZIRGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA JISMONIY  
TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINI TASHKIL  
QILISHNING ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA  
YECHIMLAR"**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО  
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛТУРЕ И СПОРТУ НА  
СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И  
РЕШЕНИЯ**

**PROSPECTS OF ORGANIZATION OF PHYSICAL  
EDUCATION AND SPORTS: PROBLEMS AND  
SOLUTIONS**

**Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman**

**2022 yil 28-29 aprel**

**Buxoro - 2022**

“Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” ga bag‘ishlangan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 martdagи 101- son farmoyishiga asosan Buxoro davlat universitetida xalqaro hamkorlar ishtirokida **202 yil 28-29 aprel** kunlari **“Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar”** mavzusida Respublika ilmiy retsenziyalangan onlayn-konferensiya o‘tkaziladi.

**Anjumanning maqsadi:** Yosh avlodning harakat faolligini optimallashtirish muammolarini hal etishning yangi yo‘llarini izlash, ularning jismoniy tayyorgarligi hamda jismoniy tarbiysi jarayoniga yangi shakllar va metodlarni joriy qilish bobida metodologik va uslubiy sharoitlarini o‘rganish.

### **Anjumanning tashkiliy qo‘mitasi: DASTURIY QO‘MITA**

1	O.X.Xamidov	BuxDU rektori, rais
2	O.S.Qahhorov	BuxDU Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini
3	B.B.Ma’murov	Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, a’zo
4	M.J.Abdullaev	BuxDU pedagogika instituti jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedra mudiri.
5	R.S.Shukurov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi mudiri, a’zo
6	A.E.Sattorov	Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi mudiri, a’zo
7	R.X.Kadirov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi professori, a’zo
8	I.I.Saidov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD), a’zo
9	X.N.Xakimov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti p.f.b.f.d. (PhD), a’zo
10	A.Sh.Inoyatov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti o‘qituvchisi kafedrasi dotsenti p.f.b.f.d. (PhD), a’zo
11	F.B.Muzaffarov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d. (PhD), a’zo
12	R.S.Baymuradov	Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti, a’zo
13	Ya.Z.Fayziev	Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti, kotib

### **II TASHKILIY QO‘MITA**

1	B.B.Ma’murov	Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, a’zo
2	S.Q.Qaxxorov	BuxDU xodimlar va talabalar kasaba uyushmasi raisi, a’zo
3	U.U.Rashidov	BuxDU moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektori, a’zo
4	G.T.Zaripov	BuxDU I va IPKT bo‘limi boshlig‘i, a’zo
5	R.S.Shukurov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi mudiri, a’zo
6	A.E.Sattorov	Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi mudiri, a’zo
7	Q.P.Arslonov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi professori, a’zo
8	G.M.Salimov	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi professori, a’zo
9	M.M.To‘raev	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti, a’zo
10	R.R.Raxmonov	“Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi” dotsenti, a’zo
11	O.A.Farmonov	“Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi” dotsenti, a’zo
12	F.A.Narzullaev	“Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasi” katta o‘qituvchisi, a’zo

Barcha ma’ruza tezislari (maqlolar) tahririyat tomonidan anonimlashtirilgan holatda tekshiriladi va tekshiruvdan ijobjiy o‘tgan ma’ruza tezislari nashr etiladi hamda har bir muallifga elektron SERTIFIKAT beriladi. Ma’ruza tezislarda berilgan ma’lumot uchun mualliflarning o‘zлari javobgar hisoblanishadi. Konferensiya materiallari to‘plamini 2022 yil 15 may kunidan boshlab <https://interscience.uz> rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin.

Konferensiya to‘plamida nashr etilgan ilmiy tezislар (maqlolar) **GOOGLE SCHOLAR, CROSSREF** xalqaro bazasida indeksatsiyalanadi, har biriga alohida [Crossref DOI](#) raqam beriladi.

Mazkur ilmiy amaliy-anjuman konferensiya professor-o‘qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilar jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida o‘z ilmiy izlanishlari natijasida tayyorlangan ma’ruza tezislari (maqlolar) bilan qatnashadi

madaniyatni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Buning uchun ta'lim — tarbiyaning barcha yo'nalişlarini, usullarini, vositalarini uyg'un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Ekologik vaziyat o'ziga xos xususiyatga ega. Inson tabiat qudratini kuch bilan emas, balki muvozanatni buzmagan holda muvofiqlashtirishi kerak. Ekologik ong insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri sohasidagi bilim va e'tiqodni mujassam etadi. Ekologik bilimlar odamlar o'zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik uzviy bog'langanini, tabiatni muhofaza etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof – muhit holati uchun mas'ullik hissini tarbiyalash, hayvonot va naboutat olamini asrash ob'ektiv zarurat ekanini tushunib yetishlarining muhim sharti hisoblanadi.

Ekologik tarbiyaning muhim shakli o'quvchilarining o'z hududlarini obodonlashtirish, ko'chat – daraxtlar ekish va ularni o'z vaqtida parvarish qilish, qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish, buloq, ko'l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalash, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromohlarda obodonlashtirish io'larini o'tkazish va boshqa amaliy ishladir. Bunday ishlar natijasida yoshlarda nazariy olingen bilimlar mustahkamlanishi bilan birga tabiat bilan bog'liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. O'quvchilar insonning tabiatdagagi o'mini, ona shahri yoki qishlog'i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatining ahamiyatini, yer va havo, ko'l, daryolarni toza saqlash masalalarini hal etishda faol hayotiy nuqtai nazarning dolzarb ekanini tushunib yetadilar. Aynan yoshlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi.

Milliy ma'nnaviyatimizning serqirra va teran ildizlariga tayangan holda mafkuraviy tarbiya yo'nalişlarini ishlab chiqishda ekologik mafkura, ta'lim va tarbiya tizimini yaratish alohida o'rinn tutadi.

Ekologik ongni, madaniyatni shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni berish bilan bir qatorda, madaniy-ma'rifiy ishlarning barcha samarali shakllari va usulularidan, jumladan: ommaviy axborot vositalaridan, og'zaki, ko'rgazmali va texnika vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki ekologik targ'ibot aholining muayyan toifalari ongiga ta'sir etib qolmay, balki bog'cha yoshidagi boladan tortib, aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi, hammaga tushunarli, ko'rgazmali va oshkora bo'lishi lozim. Tabiat, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar haqida xabarlar berish bilan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan e'zoz uyg'otib, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish borasida ekologik ta'lim — tarbiya beshigi rolini o'tashi lozim. Insoniyatni kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizda kamayib ketayotgan imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni barqarorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish uchun har birimiz ekologik bilimlarga ega bo'lmog'imiz zarur.

Sayyoramiz kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog'liq. Yoshlar o'rtasida ekologik bilim, ong, madaniyat hamda ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, ekoliya sohasini ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashishini, yoshlarning Ona tabiatni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarini oshirishni davrning o'zi talab etmoqda. Mazkur xayrli ishlarni amalga oshirishda keng jamoatchilikning roli beqiyosligini barchamiz unutmasligimiz lozim.

## OILA SALOMATLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

**Mirzayeva Sayyora Rustamovna**

CHDPI Psixologiya kafedrasи dotsenti, psy.f.f.d.

**Mirzayeva Dilrabo Rustamovna**

Toshkent shahar XTV tasarrufidagi AFIDUM psixologi

Oila-bu jamiyatning hujayrasi, kichik ijtimoiy guruh va shaxsiy hayotni tashkil etishning eng muhim shakli. Bu nikoh ittifoqi va oilaviy munosabatlarga asoslanib, er va xotin, ota-onalar va bolalar, aka-uka va opa-singillar hamda boshqa qarindoshlar birgalikda yashaydigan va birgalikdagi uy xo'jaligini boshqaradigan munosabatlardir. Oilaning eng muhim belgilari uning funksiyalari, tuzilishi va dinamikasi hisoblanadi. Funksiyalar oilaning kundalik nima bilan shug'ullanishi, tuzilishi, oila qanday ishlashi, dinamikasi, uning rivojlanish jarayonida qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Oila a'zolarining muayyan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hayoti mavjud bo'lib, oilaning o'z vazifalarini bajarishi nafaqat oila a'zolari, balki butun jamiyat uchun ham muhimdir. Oila a'zolarining moddiy ehtiyojlarini qondirishi bilan bog'liq jarayonlar ularning jismoniy salomatligini saqlashga, tiklanishiga yordam beradi. Oilaning jamiyatda bajaradigan bir nechta muhim funksiyalari mavjud bo'lib, biz quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

Tarbiyaviy funksiya - oila erkak va ayolning otalik va onalik, bolalar bilan aloqada bo'lish va ularni tarbiyalashdagi shaxsiy ehtiyojlari, shuningdek, ota-onalarning bolalarda o'zlarini anglay olishlari bilan

bog'liq. Jamiyat uchun bu funksiya bolalarning ijtimoiylashuvini va jamiyatning yangi a'zolarini tayyorlashni ta'minlaydi.

Hissiy funksiya - oila a'zolarining hamdardlik, hurmat, e'tirof, hissiy qollab-quvvatlash, psixologik xavfsizlik ehtiyojlarini qondirishni o'z ichiga oladi. Bu ruhiy salomatlikni saqlaydi, hissiy va shaxsiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Ma'naviy (madaniy) aloqa funksiyasi - birgalikda bo'sh vaqtini o'tkazish, o'zaro ma'naviy boyitish zarurati bilan bog'liq va oila a'zolarining ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shamdi.

Birlamchi ijtimoiy nazorat funksiyasi oila a'zolarining ijtimoiy normalarga riosa qilishlarini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, yoshi yoki klinik xususiyatlariga ko'ra, jamiyat normalariga muvofiq o'z xatti-harakatlarini qurishga qodir bo'limganlar uchun to'g'ri keladi.

Oilaning asosiy funksiyalarini bajara olmasligi oila a'zolarining jismoniy va ruhiy salomatligining buzilishiga, moslashuvning buzilishiga, oilaning buzilishiga olib keladi. Masalan, jinsiy-erotik funksiyaning buzilishi nafaqat oilaviy nizolar va ajralishlarga olib keladi, balki, oila a'zolarida og'ir nevropsixiatrik kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan birlamchi ijtimoiy nazorat funksiyasining bajarmasliklari deviant va huquqbuzarliklarning sababi bo'lishi mumkin.

Oilaning tuzilishi ikki turdag'i munosabatlarga asoslanadi: hukmronlik -bo'ysunish, ya'ni bunda ierarxiya yoki hokimiyatni taqsimlash nazarda tutiladi, yaqinlik - uzoqlik oila a'zolari o'rtasidagi aloqa yoki hissiy masofaga asoslanadi. V.N.Drujininning fikricha, dominant oila a'zosi xavfsizlikni ta'minlaydi, oila a'zolari o'rtasidagi normal munosabatlarni saqlash uchun javobgardir, hayot istiqbollarini belgilaydi va kelajakka ishonchni uyg'otadi.

Odatda, er yoki xotinning ota-onasi oilasida yashaganda, hukmronlik yanada qiyinlashadi. Ko'pincha oilada hokimiyatni onaning buvisi yoki otasining bobosi oladi. Buvi otaning ba'zi funksiyalarini bajara boshlagan oilada onaning funksiyalarini almashtiradi. Ota, o'z navbatida, oilaviy hayotda faol ishtirok etish huquqi uchun ona va buvisi bilan ziddiyatga tushadi. Ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarda qiyinchiliklar yuzaga kelganda, o'g'il yoki qiz ko'pincha ota-onalarni tenglashtiradigan va oila ierarxiyasida eng yuqori pog'onani egallagan er-xotinlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurashda manbara aylanadi. Bolalarning muammolari oldida, nikoh muammolari hech bo'limganda vaqtincha bartaraf etiladi, o'zlariga farzandiga kerak bo'lgan ota-ona sifatida qarash mumkin bo'ladi. Bu ota-onalarning alohida g'amxo'rlik manbaiga aylanadi, ular barcha sa'y-harakatlarini xatti-harakatlarni yaxshi tomonga o'zgartirishga yo'naltiradi. Shunday qilib, bolalarning xulq-atvoridagi buzilishlar oilani yaqinlashib kelayotgan ofatdan qutqarishga yordam beradigan himoya sifatida qaralishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bola (aniqlangan bemor) o'zining muhim roldan bexabar, bir vaqtning o'zida ikkala ota-onaning yordamiga "go'yo" keladi.

Ba'zan oila a'zolari o'rtasidagi psixologik masofaning bo'lishini ko'rish mumkin. Ba'zi hollarda oilaning odatiy tarkibi o'zgarganda (onaning o'limi, otaning yo'qligi, farzandsizligi) oila darhol "xavf" guruhiga kiritiladi, chunki ta'lif va boshqa funksiyalarini bajarish buziladi. Bundan kam muammolarni munosabatlarning buzilishi bilan bog'lash mumkin emas. Shunday qilib, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi juda uzoq masofa ularni yolg'iz avtonom hayotga olib keladi, past qiyamat va ishonchsizlik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Yana bir misol, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash, bu ajrashgan har uch juftlikdan ikkitasida janjal uchun biringchi turki bo'ladi. Yana bir misol - oila a'zolari o'rtasida uy vazifalarining teng taqsimlanmaganligi, bu ayollarning ortiqcha yuklanishiga, ularning chidab bo'lmas psixologik stressiga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda oila hayotini optimallashtirish, nikoh va bola-ota-onna munosabatlari samaradorligini oshirish, oilada bolalarni tarbiyalash muammolarini hal qilish bo'yicha ijtimoiy talab institutsionalizatsiya jarayonini tezlashtirdi va oilaviy munosabatlar tizimida quyidagi vazifalarga alohida ahamiyat qaratishni muhim masalaga aylantirdi:

- oilaning hayotiy siklining turli bosqichlarida funksional-rol tuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish;
- nikohdan oldingi davrni, turmush o'rtog'ini izlash va tanlash xususiyatlarini shaxsda shakllantirish;
- nikoh munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- bola-ota-onna munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- turli yosh bosqichlarida bolaning rivojlanishida oilaviy ta'lifning rolini o'rganish;
- me'yoriy bo'limgan oilaviy inqirozlarni o'rganish va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish.

Sabirova Nasiba Rasulovna, Yusupov Komron Shuhrat o'g'li. MALAKALI SPORTCHILARNI TARBIYALASHDA PSIXOLOGIYANING O'RNI HAMDA AHAMIYATI .....	602
Азизова Рушен Исмаиловна. ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ .....	604
Кравчук Василий Иванович, Условия эффективного повышения уровня физической подготовленности студентов вуза культуры.....	606
Таушканова Юлия Александровна, АНИМАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯ КАК ЧАСТЬ ТУРИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	608
Umarov D.Kh. METHODOLOGY OF FULFILLING STUDENT GYMNASTIC QUALIFICATION REQUIREMENTS .....	612
С.У.ИБРАХИМОВ, АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК СПОРТ МУРАББИЙЛАРИНИ ГУРУХ АЪЗОЛАРИ ОРАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ОМИЛЛАРИ .....	614
Жалолов Жононбек Жамил ўғли, Маъмуроев Баҳодир Бахшуллоевич, ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИСИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	615
Новикова Тамара Александровна, Проектные технологии как средство формирования коммуникативной компетентности будущих учителей физической культуры.....	617
Джураева Махасти Зокировна. ШАХСНИНГ СПОРТ ФАОЛИЯТИГА ҲИССИЙ-ИРОДАВИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНинг ХУСУСИЯТЛАРИ.....	619
Самадов Абдулазиз Ашуроевич. ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ ИЖОБИЙ ПРОФЕССИОНАЛ ҚИЁФАСИ .....	621
Utepberganov Amangeldi Kutlimuradovich, SPORT O'QITUVCHISI SHAXSIYATINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI UNING KASBIY AKMEOLOGIYASI MAZMUNINI SHAKLLANTIRISH UCHUN ASOS SIFATIDA .....	623
Б.Б.Маъмуроев, Жалолов Жонибек Жамил ўғли. ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МУТАХАССИСЛАРИНИ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТИ.....	624
Б.Б.Маъмуроев, Кулмуратов Минайдар Махмудбек ўғли. ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МУТАХАССИСИ КАСБ МАҲОРАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	625
S.Sh.Muxitdinovich. JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYATI USLUBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	627
<u>Samarova Shohista Rabidjanovna, Jurayeva Diloram Buriyevna</u> Ijodkor shaxslarni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	632
<u>Boltayeva Gulbaxor Rustamovna</u> Ijodiy fikrlash yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi .....	635
<u>Nabiyeva Farog'at Mahmudovna</u> O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda auditoriyadan tashaqari ishlarni tashkil qilish mexanizmlari .....	640
<u>Cho'liyeva Nodira Safarmurotovna</u> Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarini estetik tarbiyalashda o'yinli texnologiyalardan foydalanish .....	643
<u>Safarova Nafisa Kayimovna</u> Ye-learning muhitida talaba yoshlarda kitobxonlik madaniyatini takomillashtirish yo'llari .....	644
<u>Rasulova Zuhro Alisher qizi</u> Ekologik ong .....	646
<u>Mirzayeva Sayyora Rustamovna Mirzayeva Dilrabo Rustamovna</u> Oila salomatligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik xususiyati .....	647
<u>Samarova Shohista Rabidjanovna Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li</u> Ijodkor shaxslarning shakllanishida xotira jarayonini o'rni .....	649
<u>Avlayev Orif Umirovich</u> Shaxs kamolotida sotsial intellektning ahamiyati .....	650
<u>Mirdjalilova Bargida Baxadirovna Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna</u> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan psixologik jarayonlar .....	652
<u>Tojiboyev Marat Normadovich</u> Oly ta'lilda tyutor funksiyalarini amalga oshirish .....	654
<u>Mamatova Xusnora Eshquvvatovna</u> Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'zaro munosabatlar - kommunikativ oraliq .....	656
<u>Satvoldiyeva Nilufar Zoyirjon qizi</u> BADIY ADABIYOT VOSITASIDA BOLALAR NUTQINI GRAMMATIKJIHATDAN TO'G'RI O'STIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	658
<u>Samarova Shohista Rabidjanovna,Mirzayeva Mayluda Akromovna</u> O'quvchilarni chet tilini o'zlashtirish jarayonida hissiy va kognitiv komponentlar o'rtasidagi munosabatning psixologik mexanizmi (Boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida) .....	659
<u>Mirkosimova Hulkar Mirobidovna</u> O'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari .....	660
<u>Ravshanova Xanifa Akmaljon qizi</u> Zaif eshituvchi o'spirinlarning ijtimoiy intellekt dinamikasi .....	661
<u>Raxmanova Dilfuza Uchkunovna</u> Inklyuziv ta'lilda fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari .....	662